



TADBIRKORLIK MAKTABINI TASHKIL ETISH

Zokirova Munira Ortig`aliyevna

Farg`ona Shahar Tibbiyot Birlashmasi Kardiorevmotologiya bo`limi hamshirasi,
RIGA NORDIC UNIVERSITY Farg`ona fiali Biznes boshqaruvi yo`nalishi 1-
bosqich talabasi.

Munirazokirova19960823@gmail.com

Annotassiya: Tadbirkorlik bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biriga aylandi. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, raqobatning kuchayishi va yangi texnologiyalarning tez joriy etilishi tadbirkorlarning ro`lini yanada oshirdi. Shu nuqtai nazardan ta`lim tizimida tadbirkorlik ko`nikmalarini shakillantirish, yoshlarni tadbirkorlik bo`yicha bilim va ko`nikmalarini kengaytirish zamonaviy innovatsion yondashuv sifatida “Tadbirkorlik maktablari”ni ochishni talab etmoqda. Mazkur maqolada “Tadbirkorlik maktablari”ning jamiyatga keltiradigan foydalari yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: Startup, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, biznes, stimulyatsiya qilingan biznes o`yinlari, treninglar, biznes inkubatorlar, xususiy sektor, konsepsiya.

Tadbirkorlik maktablarining asosiy maqsadi shundan iboratki – biznesga qiziqadigan har bir insonga zamonaviy biznes yuritish bo`yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdir. Bunday maktablarda tahsil oluvchilar biznes reja tuzishni, bozor tahlili qilish ko`nikmalarini, startaplar yaratishni o`rganadi, raqamli iqtisodiyot talablariga mos bilimga ega bo`ladi. Innovatsion , kreativ yondashuv va fikrlashni o`rganadi. Tadbirkorlik maktablarining yana bir yutuqli tarafi shundaki, tadbirkorlarning ilk faoliyati jarayonidagi tajribasizlik ortidan keladigan zararlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Tadbirkorlik maktablari quydagi yo`nalishlarda faoliyat ko`rsatadi.

- 1.Nazariy ta`lim. Bunda, tadbirkorlik asoslari, Marketing, menejment , moliyaviy savodxonlik , iqtisodiy tahlil va biznes jarayolarini boshqarish nazariy o`rgatiladi.
- 2.Amaliy mashg`ulotlar. Bunda startap loyihalarni ishlab chiqish, stimulyatsiya qilingan biznes o`yinlari, treninglar amalga oshiriladi.
- 3.Mentorlik maslahati xizmatlari yo`lga qo`yiladi. Bunda tajribali mutahassislar tomonidan maslahatlar beriladi. Huquqiy qo`llab quvvatlanadi.
- 4.Hamkorlik tizimi joriy qilinadi. Bunda banklar, investorlar, xususiy sektor vakilari va biznes inkubatorlar bilan hamkorlikda ish olib boriladi.



Tadbirkorlik maktablarini quydagi bosqichlarda tashkil etish mumkin.

1. Bozor tahlili va ehtiyojlarini hisobga olib. Masalan: Mintaqadagi yoshlar soni, biznesga boʻlgan qiziqishlari darajasi, bozor ehtiyojlari chuqur oʻrganiladi.
2. Konsepsiya va oʻquv dasturini ishlab chiqish. Bunda mamlakatning tuzilmasi oʻquv modullari, darslar davomiyligi onlayn yoki oflayn formatda oʻqitilishi belgilanadi. "Yosh startaplar", "Biznesni 0 dan boshlab", "Ayollar uchun tadbirkorlik" kabi modullar ishlab chiqish ham mumkin.
3. Qulay infratuzulmani yaratish. Ya'ni, interaktiv ta'lim xonalari, kompyuter laboratoriyalar, taqdimot uskunalari bilan ta'minlash.
4. Malakali mutahasis va trenerlarni jalb etish. Masalan: Tajribali tadbirkorlar, IT mutahasislar, marketing sohasi bo'yicha ekspertlar, psixologlar oʻquv jarayonida ishtirok etishi kerak. Darslar nazariya va amaliyot uygʻunligida oʻtilishi zarur.

Eng soʻngida bitiruvchilar soni, ish boshlagan startaplar, iqtisodiy samaradorlik, jamiyatga qoʻshilgan hissa tahlil qilinadi. Bu keying oʻquv yili uchun dasturni takomillashtirishga yordam beradi.

Tadbirkorlik maktablari innavatsion gʻoyalarni amaliyotga olib chiqadi. Yangi ish oʻrinlarini yaratadi. Iqtisodiy oʻsishga yordam beradi, raqobatbardosh, kreativ fikirlovchi yoshlarni tayyorlaydi. Bu jarayon oʻz navbatida mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim qaror hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Joʻrayev B. "Tadbirkorlik asoslari"-Toshkent :Oʻzbekiston Milliy nashriyoti 2021
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Yoshlarni tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab quvatlash chora tadbirlari toʻgʻrisida" Toshkent 2020
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori "Tadbirkorlik ta'limini rivojlantirish strategyasi" Toshkent 2021
4. Internet ma'lumotlari.